

# Bugun Termiz shahar hokimligida "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida "gi qonun loyihasi muhokama qilindi



Bugun Termiz shahar hokimligida "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida "gi qonun loyihasi muhokama qilindi

Ushbu Qonunning maqsadi inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

insonning ko'payish jarayoniga taalluqli bo'lgan a'zolar va to'qimalarning (tuxum hujayrasi, sperma, tuxumdonlar, moyaklar yoki embrionlar) transplantatsiyasiga; a'zolar va to'qimalarning autogen (bir shaxsning o'zi tirik donor va retsipient bo'ladi) transplantatsiyasiga;

qon va uning tarkibiy qismlari donorligi sohasidagi munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Inson a'zolari va to'qimalari transplantatsiyasi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi haqida tushunchalar berildi .